

## TURK XOQONLIGINING KLASSIK RUS TARIXSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI (XVIII ASR – 1917-YILGACHA)

Fayzullayev Dilshod Farxod o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: [fayzullayevdilshod409@gmail.com](mailto:fayzullayevdilshod409@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0004-1054-9096>

Ilmiy rahbar: Z.U. Xaydarov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20575251>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turk xoqonligining klassik rus tarixshunosligida o'rganilish jarayoni XVIII asrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rus sharqshunosligining shakllanishi, dastlabki sinologik yondashuvlar, shuningdek, turkologiyaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishi yoritilgan. Nikita Yakovlevich Bichurin, Vasiliy Vasilevich Radlov hamda Vasiliy Vladimirovich Bartold kabi olimlarning ilmiy merosi asosida Turk xoqonligi tarixini o'rganishdagi metodologik o'zgarishlar ochib beriladi. Ayniqsa, O'rxun-Yenisey bitiklarining ilmiy muomalaga kiritilishi tarixshunoslikda muhim burilish nuqtasi sifatida baholanadi. Maqolada klassik rus tarixshunosligining yutuqlari bilan bir qatorda uning metodologik cheklovlari ham tanqidiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Turk xoqonligi, rus tarixshunosligi, sharqshunoslik, turkologiya, O'rxun bitiklari, Bichurin, Radlov, Bartold

## ТЮРКСКИЙ КАГАНАТ В КЛАССИЧЕСКОЙ РУССКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ (XVIII ВЕК – 1917 ГОД)

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс изучения Тюркского каганата в классической русской историографии в период с XVIII века до начала XX века. Рассматриваются формирование российской ориенталистики, ранние синологические подходы, а также становление тюркологии как самостоятельного научного направления. На основе трудов

*Никита Яковлевич Бичурин, Василий Васильевич Радлов и Василий Владимирович Бартольд раскрываются методологические изменения в изучении истории Тюркского каганата. Особое внимание уделяется значению орхоно-енисейских надписей как важнейшего источника, изменившего научные представления о тюркской истории. Также в статье проводится критический анализ достижений и ограничений классической русской историографии.*

**Ключевые слова:** Тюркский каганат, русская историография, ориенталистика, тюркология, орхоно-енисейские надписи, Бичурин, Радлов, Бартольд

## THE TURKIC KHAGANATE IN CLASSICAL RUSSIAN HISTORIOGRAPHY (XVIII CENTURY – 1917)

**Abstract:** *This article examines the study of the Turkic Khaganate within classical Russian historiography from the eighteenth century to the early twentieth century. It explores the formation of Russian Oriental studies, early Sinological approaches, and the emergence of Turkology as an independent academic discipline. Drawing on the works of Nikita Yakovlevich Bichurin, Vasiliy Vasilevich Radlov, and Vasiliy Vladimirovich Bartold, the article highlights key methodological shifts in the study of the Turkic Khaganate. Particular attention is given to the role of the Orkhon-Yenisei inscriptions as a turning point in historiography, enabling a reassessment of Turkic history based on internal sources. The paper also provides a critical evaluation of both the achievements and limitations of classical Russian historiography.*

**Keywords:** *Turkic Khaganate, Russian historiography, Oriental studies, Turkology, Orkhon inscriptions, Bichurin, Radlov, Bartold*

**KIRISH.** Turk xoqonligi (552-744) tarixini o'rganish jarayoni turli tarixshunoslik maktablarida turlicha shakllangan bo'lsa-da, klassik rus tarixshunosligi bu yo'nalishda alohida o'rin egallaydi. XVIII asrdan boshlab

Rossiya imperiyasida sharqshunoslik fanining rivojlanishi turkiy xalqlar tarixini ilmiy asosda o'rganish uchun zarur manbaviy va metodologik bazani shakllantirdi. Mazkur davrda Turk xoqonligining o'rganilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xususan, dastlab sinologik (xitoyshunoslik) yondashuvlar, xitoy tilidagi manbalarni o'rganishilishi va ilmiy muomalaga kiritilishi, keyinchalik esa mavjud ma'lumotlar asosida turkiy xalqlar tarixi xususan, Turk xoqonligi tarixini alohida o'rgana boshlandi.

### **Rus sharqshunosligining shakllanishi va N.Ya. Bichurin faoliyati.**

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Rossiyada sharqshunoslik fanining shakllanishi imperiyaning geosiyosiy kengayishi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Bu jarayon imperiyaning Markaziy Osiyo, Sibir va Uzoq Sharq hududlariga kirib borishi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Ayniqsa, Xitoyning Sin sulolasi (1644-1912) bilan diplomatik va savdo aloqalarining rivojlanishi xitoy yozma manbalarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi.

Mazkur ilmiy yo'nalish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, uning shakllanishida akademik doiralar, tarjimonlar va missionerlar muhim rol o'ynadi. Shu tariqa sharqshunoslik dastlab sinologiya asosida rivojlanib, keyinchalik turkologiya (turkiy xalqlarni o'rganish fani) kabi mustaqil yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Bu davrda V.V. Bartold, N. Ya. Bichurin, V.V. Radlov va boshqalar kabilar katta ishlarni amalga oshirdi.

Mazkur jarayonni ilmiy asosda o'rganishni boshlab bergan birinchi klassik rus tarixchisi rohib, sinolog (xitoyshunos) va tarjimon Nikita Yakovlevich Bichurin (Iakinf) (1777-1853) alohida o'rin tutadi. U xitoy yilnomalarini rus tiliga tarjima qilish orqali Turk xoqonligi tarixiga oid muhim ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritdi. Bichurin asarlarida turklar tarixi asosan xitoy manbalari asosida tiklangan bo'lib, bu yondashuv keyingi tadqiqotchilar uchun metodologik asos vazifasini o'tagan.

Bichurin tomonidan keltirilgan ma'lumotlar Turk xoqonligining siyosiy tarixini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Sharqiy Turk xoqonligining ichki

siyosiy kurashlari, xoqonlar almashinuvi va Xitoy bilan munosabatlari batafsil yoritiladi. Masalan, Shibi xoqon (609-619) va uning vorislari davrida xoqonlikning harbiy-siyosiy qudrati yuqori darajaga yetganini yozadi. [4. – B.259] Ammo Shibi xoqonning vafotidan keyin uning vorislari davrida ichki ziddiyatlar kuchaydi. Bu esa Sharqiy Turk xoqonligining Tan imperiyasi (618-907) imperatori Li Shimin tomonidan 630-yilda bosib olishiga olib keldi.[4. – B.260]

Shu bilan birga, Bichurin ma'lumotlari Turk xoqonligining tashqi siyosati, xususan Tang sulolasi bilan murakkab diplomatik munosabatlarini ochib beradi. Ayrim hollarda hatto Xitoy hukmdorlari turklar bilan hisoblashishga majbur bo'lganligi ta'kidlanadi [4. – B.259].

Bichurin tomonidan tarjima qilingan xitoy yilnomalarida turklar ko'pincha harbiy jihatdan kuchli, biroq ichki siyosiy jihatdan beqaror davlat sifatida tavsiflanadi. Xususan, xoqonlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurashlar va ichki nizolar davlatning zaiflashuviga olib kelgan asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatiladi [4. – B.260].

Biroq Bichurin yondashuvining asosiy cheklovi shundaki, u deyarli to'liq tashqi manbalarga tayanadi. Natijada turklar tarixining ichki ijtimoiy va madaniy jihatlarini yetarli darajada ochilmaydi. Shunga qaramay, uning ishlari Turk xoqonligini o'rganishning dastlabki ilmiy bosqichini tashkil etadi.

### **XIX asrda turkologiyaning shakllanishi va V.V. Radlov faoliyati.**

XIX asrga kelib rus tarixshunosligida Turk xoqonligini o'rganish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda turkologiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, tadqiqotlar yanada tizimli va kompleks xarakter kasb eta boshladi.

Millati nemis bo'lgan tilshunos, etnograf va turkolog Vasiliy Vasilevich Radlov (1837-1918) tomonidan to'plangan va o'rganilgan yozma yodgorliklar turk tarixini ichki manbalar asosida tiklash imkonini yaratdi [5. – B.12].

Mazkur jarayonning muhim vakillaridan biri Vasiliy Vasilevich Radlov hisoblanadi. U turkiy xalqlar tillari, folklori va yozma yodgorliklarini o'rganib, Turk xoqonligi tarixini ichki manbalar asosida tadqiq etish imkonini yaratdi.

Radlov faoliyatining eng muhim jihati shundaki, u ilmiy e'tiborni tashqi manbalardan ichki manbalarga burdi. Bu esa tarixshunoslikda tub metodologik burilish bo'ldi. Ayniqsa, O'rxun-Yenisey bitiklarining topilishi va o'rganilishi turk tarixini yangi nuqtayi nazardan ko'rish imkonini berdi. XIX asr oxirida Vilgelm Tomsen tomonidan ushbu bitiklarning o'qilishi esa butun turkologiya faniga, jumladan rus tarixshunosligiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Natijada Turk xoqonligi tarixini o'rganishda yangi bosqich boshlandi. Bu davrda tadqiqotchilar manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tarixiy qayta tiklash, etnik va siyosiy jarayonlarni izohlash kabi ilmiy metodlardan keng foydalana boshladilar.

### **O'rxun bitiklari va tarixiy tahlilning chuqurlashuvi.**

O'rxun bitiklari turk tarixini o'rganishda sifat jihatidan yangi manbaviy asosni yaratdi. Ushbu yozuvlar turk jamiyatining ichki tuzilishi, siyosiy tizimi va ijtimoiy ziddiyatlarini bevosita aks ettiradi. O'rxun bitiklari tilining mukammalligi va tarixiy mazmunining boyligi ularning yuqori darajadagi madaniy mahsul ekanligini ko'rsatadi [5. – B.25].

V.V.Bartold yozishicha bitiklar tahlili shuni ko'rsatadiki, Ikkinchi Turk xoqonligining qayta tiklanishi faqat tashqi bosimlar natijasi emas, balki ichki ijtimoiy jarayonlar bilan ham bog'liq bo'lgan. Xususan, boylar va kambag'allar, beklar va oddiy xalq o'rtasidagi ziddiyatlar siyosiy birlashuvga turtki bo'lgan omillardan biri sifatida talqin etiladi. Ya'ni V.V.Bartoldning fikricha, Xitoyning Tan imperiyasi tomonidan G'arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklari bosib olingach, boylar va beklar o'zlarining tabaqaviy imtiyozlarini saqlab qolish uchun Tan imperiyasi bilan oson kelishgan va milliy odatlarga qarshi chiqqan. Bu esa oddiy xalq ommasining ularga bo'lgan nafratini kuchaytirdi va bundan xoqon sulolasi vakillari xalqni Xitoy hukmronligiga qarshi ko'tarish va turk davlatini qayta tiklash uchun foydalangan.[2. – B.8]

Shuningdek, yozuvlar turk jamiyatining madaniy darajasi kutilganidan ancha yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Tilning rivojlanganligi, yozuv tizimining mukammalligi va siyosiy terminologiyani boyligi turklar madaniyati yuqori darajada shakllanganligini tasdiqlaydi [2. – B.9]. Ushbu yozuvlar orqali turklar o'z tarixini o'zlari ifodalagan noyob manba yuzaga kelgan bo'lib, bu holat ilgari faqat tashqi manbalarga asoslangan tarixiy tasavvurlarni tubdan o'zgartirdi [5. – B.27]. Bu holat ko'chmanchi jamiyatlarni “past rivojlangan” deb baholovchi eski qarashlarni jiddiy qayta ko'rib chiqishga majbur etdi.

### **Vasiliy Vladimirovich Bartold va tarixshunoslikning yangi bosqichi.**

Klassik rus tarixshunosligining eng yuksak bosqichi tarixchi, sharqshunos va akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold (1869-1930) faoliyati bilan bog'liq. U Turk xoqonligi tarixini o'rganishda kompleks (keng qamrovli), qiyosiy va chuqur analitik (tahliliy) yondashuvni qo'llagan holda ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqdi.

V.V. Bartoldning asosiy yutug'i shundaki, u turklar tarixini alohida hodisa sifatida emas, balki umumiy Yevrosiyo tarixiy jarayonlari kontekstida tahlil qildi. U arab, fors, xitoy va turkiy manbalarni birgalikda o'rganib, tarixiy voqealarni sinxronlashtirishga (bir-biriga moslashgan) muvaffaq bo'ldi. Uning fikricha, Turk xoqonligi murakkab siyosiy tizimga ega davlat, xalqaro aloqalarda faol ishtirok etgan, Yevrosiyo tarixidagi muhim bo'g'in hisoblanganligini yozadi. Turk xoqonligi qisqa vaqt ichida Oltoydan Qora dengizgacha bo'lgan hududni egallagan yirik ko'chmanchi imperiya bo'lib, keyinchalik Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'lingan. G'arbiy qismning markazi Yettisuv hududi bo'lgan. [3. – B.16]

Turk xoqonligi Buyuk ipak yo'li tizimida muhim strategik o'rin egallagan bo'lib, Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda vositachi rolini bajargan [1. – B.18].

Bartold ko'chmanchi jamiyatlarning ichki rivojlanish qonuniyatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. U ijtimoiy tabaqalanish va iqtisodiy omillarni tarixiy

jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida ko'rsatadi [2. – B.8].

Bundan tashqari, u manbashunoslik muammosiga tanqidiy yondashadi. Uning ta'kidlashicha, mavjud manbalar ko'pincha tashqi kuzatuvchilar tomonidan yozilgan bo'lib, bu tarixiy rekonstruksiya ehtiyotkorlikni talab etadi [2. – B.4].

### **Klassik rus tarixshunosligining yutuqlari va cheklovlari.**

Klassik rus tarixshunosligi Turk xoqonligini o'rganishda muhim ilmiy natijalarga erishdi. Bu davrda boy manbaviy baza yaratildi ya'ni xitoy, arab va fors manbalari tarjima qilinib ilmiy muomalaga kiritildi. O'rxun bitiklarining o'rganilishi esa Turk xoqonligi tarixining faqat tashqi manbalardan emas balki ichki manbalar orqali o'rganish imkonini ham berdi. Ko'plab manbalarning tarjima qilinishi va ilmiy muomalaga kiritilishi turkologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Lekin olib borilgan ishlarga qaramasdan, hali ham Turk xoqonligini o'rganish bo'yicha bir qancha kamchiliklar bor edi. Ko'plab klassik rus tarixchilari Turk xoqonligini o'rganishda Xitoy manbalariga ortiqcha tayangan. Masalan, ilk rus xitoyshunos olim bo'lgan N.Ya. Bichurin xitoy tilidagi manbalarni tarjima orqaligina Turk xoqonligiga oid muhim ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritdi. Xitoy manbalarida esa Turk xoqonligini ko'chmanchi va madaniyatdan ortda qolgan "varvarlar" sifatida tasvirlangan edi. Oqibatda klassik rus tarixchilari ham Turk xoqonligini madaniyatdan orqada qolgan ko'chmanchi xalq sifatida bildi. Bu esa bir yoqlama qarashga olib keldi.

**XULOSA.** Turk xoqonligining klassik rus tarixshunosligida o'rganilishi XVIII asrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda izchil evolyutsiyani boshdan kechirdi. Dastlabki bosqichda manbalarni yig'ish va tarjima qilish ustuvor bo'lgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin ilmiy tahlil va rekonstruksiya metodlari shakllandi. O'rxun bitiklarining o'rganilishi esa turk tarixini ichki manbalar asosida talqin qilish imkonini yaratib, tarixshunoslikda tub burilish yasadi. Klassik rus tarixshunosligining eng muhim yutug'i — Turk xoqonligini umumiy Yevrosiyo

tarixiy jarayonlari kontekstida o'rganish an'anasining shakllanishidir. Ayniqsa, V.V. Bartold faoliyati bu yo'nalishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Shu bilan birga, mazkur davr tadqiqotlari zamonaviy tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tanqidiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бартольд, Василий Владимирович. Сочинения. Том 5. — Москва, 1968. // <https://www.ipos-tmn.ru/rics//otchet/331.pdf> [murojaat qilingan sana: 16.04.2026]
2. Бартольд, Василий Владимирович. Тюрки. Двенадцать лекций по истории тюркских народов Средней Азии. — Алматы, 1998. // <https://www.klex.ru/16dt> [murojaat qilingan sana: 16.04.2026]
3. Бартольд, Василий Владимирович. Очерк истории Семиречья. — Фрунзе, 1943. // [https://cdn-1.aki.kg/st\\_bilimlib/7/27d76eb7cdaeddfacbe373555f468cda742896.pdf](https://cdn-1.aki.kg/st_bilimlib/7/27d76eb7cdaeddfacbe373555f468cda742896.pdf) [murojaat qilingan sana: 16.04.2026]
4. Бичурин, Никита Яковлевич. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — Санкт-Петербург, 1851. // [https://cdn-1.aki.kg/st\\_bilimlib/7/f87f211dfddb58e2b0e03f2272329cb1c4b64e2a.pdf](https://cdn-1.aki.kg/st_bilimlib/7/f87f211dfddb58e2b0e03f2272329cb1c4b64e2a.pdf) [murojaat qilingan sana: 16.04.2026]
5. Радлов, Василий Васильевич. Древнетюркские памятники Монголии. — Санкт-Петербург, 1894.